

TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH JARAYONIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI MUNOSABATLARI

Ro'zieva Farangiz Shavkat qizi
Jizzax ilg'or kasbiy mahorat texnikumi
Ishlab chiqarish talim ustasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda ta'lim va fan o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, ularning o'zaro ta'siri hamda axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim tizimining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'limni axborotlashtirish jarayonining ijobiy va salbiy jihatlari, zamonaviy ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan inqiroz sabablari hamda ularni bartaraf etishning texnokratik va insonparvarlik yondashuvlari yoritib beriladi. Maqolada o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning yangi shakllari, hamkorlik pedagogikasi, shuningdek tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Muallif tomonidan ta'limni insonparvarlashtirish va uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, fan, axborotlashuv, axborot texnologiyalari, insonparvarlik, uzluksiz ta'lim, pedagogika, tarbiya, intellektual salohiyat.

Jamiyat muayyan intellektual salohiyatga ega bo'lgan taqdiridagina axborot texnikasi ilmiy taraqqiyotga turtki berishi mumkin. Jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda ta'lim tizimi muhim rol o'ynaydi. O'z navbatida, fan ta'lim funksiyasini bajaradi. Binobarin, fan bilan ta'lim o'zaro aloqa qiladi. Bu aloqa shunda namoyon bo'ladiki,

Birinchidan, fan yangi bilim ko'rinishidagi o'z mahsulini ishlov berish va tarqatish uchun ta'limga taqdim etadi.

Ikkinchidan, ta'lim tegishli tarzda o'qitilgan va tayyorlangan kadrlarni fanga yetkazib beradi.

Fan bilan ta'lim o'rtasida uzviy aloqa mavjudligiga, ular bir-birisiz rivojlana olmasligiga qaramay, fan va ta'lim inson faoliyatining har xil sohalaridir. Xususan, mazkur tafovut inson faoliyatining bu ikki o'zaro bog'langan, lekin har xil sohalarini axborotlashtirish jarayonida ham namoyon bo'ladi. Kadrlarni qayta tayyorlash muammosi uzluksiz ta'lim muammosi bilan chambarchas bog'liq. Buning uchun eng avvalo umumiy ta'lim negizi - fundamental fanlarni bilish va umumiy ma'lumotga ega bo'lish zarur. Bu ishchi va xizmatchilarning malakasini oshirishni va hatto ularni qayta tayyorlashni taqozo etadi. Shu bois axborot jamiyati sharoitida ta'lim odamlarda zarur holda boshqa malakaga o'tish, bilim va ko'nikmalar olamida mustaqil mo'ljal olish, mustaqil o'qib-o'rganishni ta'minlaydigan shaxsiy fazilatlarni oldindan shakllantirishi lozim.

Tarix o'z ta'lim tizimidan kamdan-kam jamiyat qanoatlanganini ko'rsatadi. Bu ta'limning klassik modeli eskirgan bugungi kunda, ayniqsa yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ta'lim paradigmasini inqilobiy o'zgartirish, uni demokratlashtirish, kompyuterlashtirish va insonparvarlashtirish, ta'lim dasturini erkin tanlash, uzluksiz ta'lim tizimini vujudga keltirish tendensiyasi tobora kuchayib bormoqda.

Hozirgi ta'lim sohasida qarama-qarshi tendensiyalar - jamiyat hayoti va faoliyatida ta'lim rolining o'sishi hamda ta'lim sohasida inqiroz kuzatilmoqda. Mazkur inqiroz faqat moliyaviy taqchilik bilan emas, balki industrial jamiyatga samarali xizmat ko'rsatgan ta'lim tizimi axborotlashgan jamiyat talablariga javob bermasligi bilan ham izohlanadi. Darhaqiqat, axborotlashgan jamiyatda ta'lim butunlay boshqacha rol o'ynaydi.

Ta'lim sohasidagi inqirozning mohiyati va undan chiqish yo'llari haqidagi har xil qarashlar to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, bu muammolarga nisbatan ikki asosiy yondashuvni qayd etishimiz mumkin. Birinchi yondashuv texnokratik xususiyatga ega. U shakllanayotgan axborot jamiyati yangicha tafakkurni, tez o'zgarayotgan axborot-texnik borliqqa nisbatan munosabatning yangi tipini shakllantirishni taqozo etadi, degan fikrni ilgari suradi. Bu esa, ta'limning mazmuni va metodikasini o'quvchilarda axborot bilan oqilona ishlash, kompyuter texnologiyalarini bilish, professional-pragmatik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirishni taqozo etadi. Hozirgi ta'lim tizimida hukm surayotgan inqirozdan chiqishga nisbatan ikkinchi yondashuvni insonparvarlikka asoslangan yondashuv deb nomlash mumkin. U inqiroz sabablari va mazmunini ta'limning noinsonparvarlashuvida, industrial va bozor munosabatlari-ning vositasiga aylanib qolganida ko'radi.

Umuman olganda, "Inson shaxsini, uning qobiliyati va ehtiyojlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnik ta'limni noinsonparvarlashgan ta'lim deb bo'lmaydi.

Ta'limni axborotlashtirish jarayonining kengayishi natijasida muhandislik ta'limining ijtimoiylashuvi muammolari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Bu muhim va zarur jarayonning salbiy jihatlari ham yo'q emas. Ta'limni axborotlashtirish bilimni axborotga aylantirib, bilimlarni o'zlashtirishni inson ongining boshqa unsurlari - emotsiya va kayfiyat, intuitsiya va ko'p ma'nolilikdan ajratadi, bilimni qat'iy bir ma'noli va rasmiy qilib qo'yadi, dialektik fikrlash usuliga amal qilmaydi, "mashinali fikrlash" tarzini shakllantiradi. Bunday fikrlash tarzi tegishli xulq-atvorni shakllantiradi: odamlar bir-biri bilan kam aloqa qila boshlaydi, shaxslarning jamiyatdan ajralishi va, pirovard natijada, insonning virtual olamga kirib ketishi sodir bo'ladi. Fikrlash va xulq-atvor shakllari, ularning mazmunidan ustunlik qila boshlaydi. Ta'lim sohasida bu uning insonparvarlik unsuri yo'qolishiga olib keladi. Xullas, axborotlashtirishning salbiy oqibatlarini tugatish uni insonparvarlash-tirishni taqozo etadi. Ta'lim oluvchilarda obrazli fikrlashni, muayyan qobiliyat va ko'nikmalarni rivojlantirish ijtimoiy tayyorlashning muhim muammosidir. Shuni e'tiborga olish kerakki, muayyan qarorni qabul qilishda inson, nafaqat o'z ilmiy bilimlarini, balki xohishi, istagi, qiziqishi, kafiyati, simpatiyalarini ham ishga soladi.

Axborotlashgan jamiyatga o'tilishi bilan o'qituvchilar faoliyati yangicha mazmun va ahamiyat kasb etadi. Axborotlashgan jamiyatning asosiy boyligi - bilimning ahamiyati, qimmatini uning amalda qo'llanilishiga to'g'ri proporsional bo'ladi. O'zining amalda qo'llanilishi uchun jamiyat a'zolari uni egallashi, o'zlashtirishini taqozo etadi. Bilimlarni o'zlashtirish ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiyalari qo'llanilishi bilan "o'qituvchi - o'quvchi" munosabatlari tubdan o'zgaradi. Agar an'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi sub'ekt rolini bajaradigan, o'quvchi esa o'qituvchi faoliyatining

ob'ekti hisoblanadigan avtoritar munosabatlarni nazarda tutgan bo'lsa, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan ta'lim jarayoni yangi munosabatlarni – o'qituvchi bilan o'quvchi ta'lim- tarbiya jarayonining sub'ektlari rolini bajaruvchi, ularning o'zaro munosabatlari esa, hamkorlik pedagogikasi negizida shakllanuvchi "o'qituvchi - o'quvchi" munosabatlarini vujudga keltiradi. O'z rivojlanishining axborot bosqichiga o'tishda, jamiyat ta'lim oldiga qo'ygan vazifalarni amalga oshirish uchun, pedagogik faoliyatni takomillashtirish zarur.

Mohiyat e'tibori bilan, jamiyatni axborotlashtirishda ta'lim sohasi inson faoliyatining boshqa tarmoqlarini axborotlashtirishdan oldinda borishi lozim, chunki ta'lim jarayonida olingan bilim va ko'nikmalar inson faoliyatining barcha turlari zamirida yotadi, ularning yo'nalishini, rivojlanish sur'atlari va foydaliligini belgilaydi. Shu bois ta'limning axborotlashtirilishi darajasiga qarab, butun jamiyatning axborotlashtirilishi ko'lami to'g'risida hukm chiqarish mumkin. Shunday qilib, ta'limning axborotlashuvi muayyan jamiyat, hamdo'stlik yoki davlat rivojlanish darajasining o'ziga xos mezonidir. O'z-o'zidan ayonki, har qanday o'quv materialini ham kompyuterga kiritish mumkin emas. Unga faqat formallashtirsa bo'ladigan o'quv materialini kiritish mumkin. Bilimlarni kompyuterlashtirish imkoniyati ularni formallashtirish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu paytgacha biz, faqat o'qitish jarayonini axborotlashtirish to'g'risida so'z yuritdik. Vaholanki, o'qitish ta'lim jarayonining tarkibiy qismlaridan biri. Ta'lim jarayonining ikkinchi tarkibiy qismi tarbiya - yangi avlod bilan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'rtoqlashish, unga izchil ta'sir ko'rsatish, shaxsni shakllantirish, uni ijtimoiy hayotga va bunyodkor mehnatga tayyorlash, shaxsni ijtimoiylashtirishdir. "Tarbiya – ta'lim jarayonining muhim qismi. U boshlang'ich, o'rta va oliy maktabda professor-o'qituvchilar jamoasi tarbiyachi-pedagog burchiga ongli munosabatda bo'lishini, shaxsiy tashabbus ko'rsatishini va bu xayrli ishga keng jamoatchilikni jalb qilishni taqozo etadi". Jamiyatimizda tarbiya yosh avlodda vatanparvarlik, vatanga muhabbat, davlatchilik (ya'ni qonunga hurmat), mehnatkashlik, mas'uliyat, madaniy qadriyatlarga hurmat singari fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan. Tarbiya - ta'lim jarayonining nafaqat eng muhim, balki eng og'ir qismidir. Bu qiyinchilik juda ko'p ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Chunonchi, maktabda, ayniqsa oliy maktabda o'qituvchilar tarbiyaga ko'pincha ikkinchi darajali ish deb qaraydilar. Boshqa tomondan, tarbiya ishini aniq hisobga olish va nazorat qilish juda qiyin. Bu ish ko'pincha ayrim o'qituvchilarning tashabbuskorligi, o'z kasbiga muhabbatiga tayanadi. Jamiyatda mavjud salbiy hodisalar: ish haqi va stipendiyalar o'z vaqtida to'lanmasligi, talabalarning bir qismi, ayniqsa, chetdan kelib o'qiyotgan talabalar moddiy ahvolining og'irligi, korrupsiya, byurokratizm va ishsizlik illatlari ham tarbiya ishini og'irlashtiradi. Tarbiya ishini tubdan yaxshilash axborotlashgan jamiyatni shakllantirish yo'lidagi muhim vazifalardan biridir. Xo'sh, yosh avlodga tarbiya berishni takomillashtirishda axborot texnikasi qanday rol o'ynashi mumkin? To'g'ri, tarbiya jarayonlarini to'liq kompyuterlashtirish mumkin emas, chunki ular tarbiyachining o'quvchi yoki talaba bilan shaxsan aloqa qilishini nazarda tutadi. Lekin, shunga qaramay, axborot texnikasi tarbiya jarayonini takomillashtirishga ma'lum darajada imkoniyat yaratishi mumkin. "Tarbiya jarayoni nafaqat sezgilar, kechinmalar, emotsiyalarga, balki borliq, ijtimoiy va tabiiy muhit haqidagi muayyan bilimlarga ham asoslanadi. Shu bois ta'lim

jarayoni tarbiya funksiyalarini ham bajaradi". Har qanday fanni o'qitishda, uning alohida tarbiyaviy ahamiyatga ega jihatlarini ajratish va ulardan foydalanish zarur. Bunda ilmiy va texnikaviy kashfiyotlar tarixidan olingan ayrim dalillarni yoritish, muayyan muammolar bo'yicha har xil qarashlarni namoyish etish, nizoli vaziyatlarni vujudga keltirish va talabalarga ularni hal qilishni taklif etish lozim. O'quv jarayonida kompyuterdan foydalanish o'quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash va harakat qilishni, ishda aniqlik hamda unga mas'uliyat bilan yondashishni, ma'qul natijaga erishishdan manfaatdorlikni tarbiyalaydi. Ta'limni axborotlashtirish muammolari keng ijtimoiy ma'no kasb etib bormoqda, ularga jamiyatni axborotlashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri deb qaralmoqda. Turli mamlakatlarning ta'limni axborotlashtirish dasturlari buning dalilidir. Shuni e'tirof qilish mumkinki, ta'limning iqtisodiy va tarixiy, ijtimoiy va axborotlashgan va boshqa jihatlarini tadqiq qilish XX asr oxirida ko'pgina davlat va xalqaro tashkilotlar faoliyatida dolzarb ahamiyat kasb etdi. Jamiyatimizda sodir bo'layotgan islohotlar va modernizatsiya jarayonlari XXI asrda davlatning ta'lim siyosatini yangidan qurishni taqozo etmoqda. Bo'lg'usi mutaxassislarda dunyoqarash madaniyati va umuminsoniy, ma'naviy qadriyatlar hamda shaxsiy mas'uliyat hissini mustaqil ijodiy fikrlash tarzini, kelajak maqsad va vazifalarini aniq belgilash ko'nikmalarini shakllantirish vazifasi birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Ta'limning axborotlashuvi uni dunyoni yangicha, yaxlit tushunishga yo'naltirish davr talabiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Saidov M. Erkin va farovon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. //Erkin va farovon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. – T.:O'zbekiston, 2006. – B.23– 35.
2. Boyto'raev T. Ajdodlar merosi va komillik tarbiyasi.//Muloqot.– Toshkent, 2005. – № 2. – B.26– 27.
3. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.:O'zbekiston, 2000.B.– 90-110.
4. Jumanova B. Oila – tarbiya maktabi. // Muloqot. 2003. – № 2– 3. – S.16-18;
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T. 5. – T.:O'ME, 2003. – B.704.
6. Falsafa asoslari. T.:O'zbekiston, 2005. – B.203.
7. Abdullajanova D. Tarixiy ong va tarixiy xotira. //Falsafa va huquq. – Toshkent, 2004. – № 2. – B.83.
8. Tulenov J., Jabborov I. Tarixiy ongni rivojlantirish – davr talabi. – T.:Mehnat, 2000. – B.7.
9. Shermuhamedov S.Sh. Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot. – T.:Fan, 2005. – B.18– 41.
10. G'aybullayev O. Yoshlar ongiga istiqloq g'oyasini singdirishning ijtimoiy mohiyati haqida.//O'zbekistonda ijtimoiy fanlar.– 2005. – № 12. – B.80.
11. Normatov I. Ma'naviyat – bebaho boylik. //Erkin va farovon hayotini yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. – T.:O'zbekiston, 2006. – B. 70.